O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI

TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

“Himoyaga ruxsat etildi”
“Xalqaro iqtisodiy munosabatlar”
kafedrasi mudiri
i.f.d., prof. A.A.Isadjanov
“_____”________ 2011yil

**Artikov Abror**

Mavzu: “Jahon iqtisodiyotida intellektual mulk savdosi va uni himoya qilish tendensiyasi ”

Tahlim yo’nalishi: 5341100 – Jahon iqtisodiyoti va Xalqaro iqtisodiy munosabatlar

**Bakalavr darajasini olish uchun taqdim etilgan**

**bitiruv malakaviy ishi**

Ilmiy rahbar: i.f.n., dots. Xudoyorov A.

Taqrizchi: i.f.n., dots. Qoraboev A. R.

**Toshkent – 2011**

**MUNDARIJA**

**Kirish……………………………………………………………………….. 2**

**Birinchi bob. Intellektual mulk huquqininng nazariy jihatlari**......................... 6
1.1 Intellektual mulk mazmun mohiyati..……………………………………… 6
1.2 Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellektual mulk himoyasini o'rni…............... 11

**Ikkinchi bob. Jahon savdosdida intellectual mulk savdosining ahamiyati**………………………………………………………… ...............20
2.1 Jahonda intellectual mulk savdosing iqtisodiy salohiyati…...………….. ..........20
2.2 O'zbekistonda intellectual mulk huquqi va uning rivojlanish xususiyatlari..... 37
**Uchinchi bob. Jahonda intellektual mulk huquqi faoliyati takomillashtirish va uni himoya qilish tendensiyalari…………………………………………………43**
3.1 Intellektual mulk huquqi himoyasini takomillashtirshda jahon amaliyoti yo'llari…………………………………………………………………………..43
3.2 Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda intellektual mulk huquqi himoyasini faollashtirish............................................................................................49

**Xulosa………………………………………………………………...... 55**

**Foydalanilgan adabiyotlar……………………………………………….. 58**

**Ilovalar…………………………………………………………………63**

"Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim — O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin."[1]

I. A. Karimov

# Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekistonda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada chuqurlashtirishdan iborat. Jahon xo'jaligi tizimida globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, eksport tarkibini diversifikatsiyalash va qo'shilgan qiymat darajasi yuqori bo'lgan tovarlar ulushini oshirish mamlakat oldida turgan eng asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, qaysi mamlakat eksportida xomashyo mahsulotlari yetakchi bo'lsa, bu mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki jahon bozorida xom ashyo narxlari beqaror va unda tebranishlar darajasi yuqori hisoblanadi. O'zbekiston eksportining tovar tarkibi ham so'ngi yillarda sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Mamlakatimiz eksporti tarkibida raqobatbardosh tayyor mahsulot salmog'ining barqaror o'sish tendensiyasi va xom ashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar mahsulotlari ulushining kamayib borayotgani yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayni vaqtda O'zbekiston uchun an'anaviy eksport xom ashyosi bo'lgan paxta tolasining bu boradagi ulushi 2000 yildagi 27.5 foizdan 2009 yilda 8,6 foizga tushdi. 2000 yilda mamlakatimiz eksporti 3,2 mlrd. dollarni tashqil qilgan bo'lsa, 2006 va 2009 yillarda mos ravishda 6,3 va 11,7 mlrd dollarga yetdi. 2009 yilda eksport hajmi 2000 yilgi tashqi savdo aylanmasidan qariyib ikki marta, eksport hajmidan esa 3,6 marta ko'pdir. Prezidentimiz I.A.Karimov o'z nutqida takidlaganidek: "Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulot ulushining izchil oshishi, birinchi navbatda, iqtisodiyotimizning o'sib borayotgan salohiyati va imkoniyatlaridan

[1] "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, o'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" Karimov I. A. Toshkent 2009, mart.

dalolat beradi. Shu bilan birga, bunday holat eksportimizning xom ashyo resurslari narxi tez-tez o'zgarib turadigan jahon bozori ta'siriga bog'liqligini kamaytirishda muhim yo'nalish bo'lib xizmat qiladi."

Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning 160 dan ziyod davlatlari bilan tashqi savdo aloqalarini o'rnatgan bo'lib ularning asosiylari Rossiya, Xitoy, Shveytsariya, Ukraina, Janubiy Koreya, Turkiya, Germaniya, AQSh va Frantsiya kabi dunyoning yetakchi mamlakatlaridir.

Eksport geografiyasini kengaytirish va tovar tarkibini deversifikatsiyalash mamlakat tashqi savdosida muhim ahamiyatga ega. Buning uchun esa jahon tajribasidan foydalanish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston eksport geografiyasini tovar tarkibini takomillashtirishning samarali ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda uni amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar tayyorlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega va mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Xalqaro savdo nazariyalari, milliy iqtisodiyotda eksportning roli va uning iqtisodiy o'sishga ta'siri hamda eksport tarkibini tahlil qilish va unda tayyor mahsulot va xizmatlar ulushini oshirish masalalarini o'rganish bilan ko'plab chet el va yurtimiz iqtisodchi olimlari ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning sayi – xarakatlari natijasida, tashqi iqtisodiy munosabatlar tizimini rivojlantirishning ko'plab tushunchalari va qonuniyatlari ishlab chiqilgan va tadqiq qilingan. —B. Olin, M. Porter, D. Rikardo, P. Samuelson, A. Smit, A. Xiksher, V. Beyli, B.Solnik, P. Burik, M. Richard va boshqalar tomonidan chuqur o'rganilgan.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining nazariy va amaliy muammolari, eksport salohiyatini oshirish va tarkibiy rivojlantirishning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi roli haqida MDh olimlari – T. Koychiyev, A. Ya. Elyanov, Ye.G. Yasin, A.P Kireev, Ye.V Skurko, G.P.Ovchinnikov, Yu.Shishkov, V.V.Pokrovskaya, V.Sokolov, B. Fomin, L.L.Igonina va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishi, qulay tashqi savdo muhitini yaratish va eksport tarkibi rivojlantirishning ilmiy-amaliy jihatlari respublikamiz iqtisodchi-olimlari Alimov R.O., Rasulov A.F., Bekmuradov A.Sh., Berkinov B.B., Sirajidinov N.S, To'xliev N., O'lmasov A., Shodiev R.X., Nazarova G.G., Xakimov N.Z, Bobojonov B.R. va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** O'zbekiston eksporti va uning tovar tarkibini rivojlanish yo'nalishlarini va jahon savdosining shu davrdagi rivojlanish yo'nalishlarini o'rgangan holda eksport tarkibini takomillashtirish va geografiyasini

kengaytirish yo'llarini ishlab chiqish va ilimy-uslubiy, amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda ishda quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutilgan:

- jahon savdosi va uning rivojlanish yo'nalishlarini ochib berish;
- O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini yoritib berish;
- O'zbekiston eksportini rivojlanish yo'nalishlari va tarkibiy takomillashuvining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilish;
- O'zbekiston eksporti tarkibi, undagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarni aniqlash, xulosa va tavsiyalar berish;
- eksport tarkibini devirsifikatsiya qilish va eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishda korxonalarni rivojlantirish yo'llarini ilmiy-uslubiy o'rganish;
- O'zbekiston hududlarining tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish yo'llarini o'ziga xos jihatlarini asoslash;
- eksportda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar roli va ularni samaradarligini oshirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'ekti.** O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari majmuasi va rivojlanish jarayonlaridan iborat.

**Tadqiqotning predmeti.** Eksport geografiyasini kengaytirish va unda yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan raqobatdosh tayyor mahsulotlar salmog'ini oshirish usullari, eksportni mintaqaviy rivojlanish yo'nalishlari va unda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarni o'rni tadqiqot ishining predmeti hisoblanadi.

**Tadqiqotning metodlari va usullari.** Ilmiy ishda iqtisodiy va statistik tahlil, tizimli va qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil va sintez, ilmiy abstraksiya va boshqa usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning axborot bazasi** bo'lib, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlari, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ma'lumotlari, sohaga oid milliy va xorijiy tillarda chop etilgan ilmiy-nazariy va uslubiy adabiyotlar, boshqa matbuot nashrlari materiallari xizmat qildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiliklari** quyidagilarda o'z aksini topadi:

- jahon savdosi va uning rivojlanish yo'nalishlarini ochib berilgan;
- O'zbekiston eksportini rivojlanish yo'nalishlari va tarkibiy takomillashuvining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilingan;
- O'zbekiston eksporti tarkibi, undagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarni aniqlangan, xulosa va tavsiyalar berilgan;

- eksport geografiyasini tahlil qilish va uni o'zaro manfaatli hamkorlar hisobiga kengaytirish yo'llarini aniqlangan;
- eksport tarkibini devirsifikatsiya qilish va eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishda korxonalarni rivojlantirish yo'llarini ilmiy-uslubiy o'rganilgan;
- O'zbekiston hududlarining tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish yo'llarini o'ziga xos jihatlarini asoslangan;
- eksportda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonar roli va ularni samaradarligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Ishning amaliy axamiyati.** Bitiruv malakaviy ishdagi ilmiy jihatdan asoslangan taklif va tavsiyalar O'zbekistan Respublikasining tashqi savdosi bilan bog'liq axborot-tahliliy materiallar tayyorlashda hamda "Jahon iqtisodiyoti" va "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar" fanlarini o'qitish jarayonlarida qo'llanilishi mumkin.

**Ilmiy ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

**Kirishda** mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati o'z aksini topgan.

**"Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishni nazariy jihatlari"** nomli birinchi bobda avvalo tashqi savdo, eksport va import tushunchasining mohiyati ochib berilgan, hamda jahon savdosining rivojlanish yo'nalishlari o'rganilgan.

**" O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishni ahamiyati"** nomli ikkinchi bob uch qismdan iborat bo'lib, unda O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati, O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkiliy mehanizmi, O'zbekistonning tashqi savdo aloqalari va uning rivojlanish xususiyatlari mavzularini yoritib berilgan.

**" O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish "** nomli uchinchi bobda O'zbekiston hududlarining tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish yo'llari, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat olib borayotgan korxonalarning tashqi aloqalarini takomillashtirish zarurati haqida ma'lumot berilgan.

**Xulosada** tadqiqotning natijalari umumlashtirilgan, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar o'rtaga tashlangan.

## Birinchi bob. Intellektual mulk huquqininng nazariy jihatlari

### 1.1. Intellektual mulk mazmun mohiyati

Интеллектуал мулк хуқуқи хусусиятлари доирасида Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этиш йўллари ва чоралари” номли асарида келтирилган материаллар, қоидалари ва хулосаларни пухта ўзлаштиришлари, келгуси фаолиятида самарали фойдаланишлари ҳамда ижодий ёндошишларини таъминлаш фанни ўрганиш олдида турган асосий вазифалардан биридир.

Дунёнинг нуфузли экспертларини фикрларига кўра, бу инқироз 2009 йилда ва 2010 йилда ҳам давом этиши ва эҳтимоли янада чуқурлашиши кутилмоқда. Булардан келиб чиққан ҳолда, ўз-ўзидан аёнки, Ўзбекистон жаҳон иқтисодий инқирозининг салбий оқибатларини бартараф этиш бўйича 2009-2012 йилларга мўлжалланиб қабул қилинган Инқирозга қарши чоралар дастури Ўзбекистоннинг 2009 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг устивор йўналиши бўлиб қолади. Бу ўринда ишлаб чиқаришни модернизация қилиш, техник ва технологик қайта жиҳозлаш, халқаро сифат стандартларига ўтиш бўйича қабул қилинган тармоқ дастурларини амалга оширишни тезлаштириш вазифаси кун тартибига қўйилмоқда. Бу эса ўз навбатида, Ўзбекистоннинг ҳам ташқи, ҳам ички бозорида барқарор мавқега эга бўлишини таъминлаш имконини беради.

Жаҳон бозорида талабни рағбатлантириш орқали маҳаллий ишлаб чиқарувчиларни қўллаб-қувватлаш Ўзбекистон иқтисодий ўсишининг юқори суръатларни сақлаб қолишда ғоят муҳим аҳамиятга эга. Ушбу дастур доирасидаги лойиҳаларда кенг истеъмолдаги озиқ-овқат ва ноозиқ-овқат товарларни ишлаб чиқариш корхоналари учун кенг кўламли рағбатлантириш тизими, яъни солиқ ва божхона имтиёзлари берилмоқда.

Интеллектуал мулк ташқи иқтисодий фаолият (ТИФ)да товарларни номенклатурасини ўрганиш, уйғунлашган ТН божхона тўловлари, интеллектуал мулк объектларини муҳофазалаш, илмий кашфиётлар ва ихтиролар, селекция ютуқлари ва саноат намуналари ҳамда белгилари, экспорт ва импорт товарлар бўйича шартномлар тузиш, патент ахборотлари, халқаро, Европа ва МДҲ патентшунослик, лицензиялаш ва сертификациялаш тўғрисидаги ахборотлар билан танишган ва ҳуқуқий нормаларни билиш тўғрисида маъруза ва семинар дарслари олиб борилади.

Бугунги кунда ҳал этилиши лозим бўлган масалаларни ечими учун Республикамизга интеллектуал мулк химояси соҳасида жаҳон андозаларига мос келувчи юқори малакали мутахассислар керак. Шу куннинг мутахассисига, биринчидан, истеъмолчиларни эҳтиёжларидан келиб чиққан ҳолда интеллектуал бозорни ҳар томонлама таҳлил қила билиш, иккинчидан бозорга таъсир эта билиш талаби қўйилади. Интеллект–инсонни ҳайвонот дунёсидан ажратиб турадиган асосий белги бўлиб, ривожланишни сифат

жиҳатидан янги поғонага кўтаради. Интеллект сўзи лотинча “intellectus” сўзидан келиб чиққан бўлиб, инсоннинг ақли, онгги, фикрлаш қобилиятини билдиради. Инсон ҳаётининг мақсади–энг яхши нарсаларга интилишдир. Ибтидоий тузумдан, яъни илк меҳнат қуроллари яратилгандан бошлаб инсон ҳар доим ўзининг турмуш тарзини яхшилаш, ўз ижодий салоҳиятини ошириш йилларини тинимсиз излаб келган. Шунинг учун ҳам қадим замонлардан инсоният жамиятида биринчи олимлар, ихтирочилар, рассомлар ва мусиқачилар пайдо бўлган. Улар инсонлар ҳаёти ва турмушини енгиллаштирувчи асбоб-ускуналар ихтиро қилишган, чорвачилик ва қишлоқ хўжалигини ўзлаштириб, атроф муҳитдан ҳимояланиш учун уйлар қуришган, юкларни ташиш воситаларини ўйлаб топиб, денгиздан сузиш учун кемасозлик билан шуғулланишган ва бу билан техник, иқтисодий ва маданий тараққиётни таъминлаб келишган.

Интеллектуал фаолият инсоният жамияти ривожланишининг асосий сабабидир. Интеллектуал фаолиятнинг энг муҳим турлари фан, санъат ва техник ижодиёт, халқлар ва миллатлар, давлат ва цивилизациялар ривожининг доимий йўлдошидир.

Инсоният жамияти ўз бошидан қулдорлик, феодализм, капитализм, социализмни кечирди. XXI асрниинг бошида, асосий ривожлантирувчи кучи рақобат бўлган бозор иқтисодий тизим эканлиги тан олинди.

Ҳамма вақт ҳам рақобат курашида ким интеллектуал имкониятлар ва интеллектуал фаолият натижаларидан унумли фойдалана олса фақат ўша муваффақиятга эришиши мумкин.

Бундан шундай мантиқий хулоса чиқадики, инсоннинг билим олиш, ихтиро қилишга табиий интилиши ва ижодий маҳсулидан иқтисодий самара олиниши бир-бирига мос келгандагина у ўзининг ижодий салоҳиятидан оқилона фойдалана олади, шу боис доимий изланишдан манфаатдор бўлади.

Фақат мулк эгасигина ўз мулкидан юқори даражада самарали ва оқилона фойдаланиб, уни бошқара олади. Бундай иқтисодий рағбатлантиришнинг энг мақбул усули шундан иборатки, инсон ўз интеллектуал салоҳияти натижаларига мулкчилик хуқуқига эга бўлиши, яъни интеллектуал мулкка эгалик қилиши керак. Зеро ундан бошқа ҳеч ким бу натижаларга хўжайинлик қила олмасин. Фақат унинг ўзигина интеллектуал ижоди натижаларидан ўз истагича фойдаланиш ва бошқа шахсларга сотиш борасида мутлоқ ҳуқуқига эга бўлади.

Интеллектуал фаолиятнинг кейинчалик қандайдир бирор-бир объектив (моддий) шаклда ифодалана оладиган натижаларигина интеллектуал мулк бўлади деб айтиш мумкин.

Бунда иқтисодий ривожланишдан манфаатдор давлатнинг асосий вазифаси ҳар бир кишининг ўз интеллектуал мулкига эгалик қилиш ва ундан фойдаланиш ҳуқуқи ишончли муҳофазаланадиган тизимни таъминлашдан иборат.

Яна бир бор таъкидлаб ўтиш лозимки, интеллектуал мулкнинг ўзига хос хусусияти ўз эгаларига фойда келтиришдан иборат, демак, мулк эгаларининг ўз мулкига мутлоқ ҳуқуқи муҳофазаланган ҳолдагина бутун жамият фойдасига

хизмат оила олади Хулоса шуки, интеллектуал мулк ҳуқуқларига риоя қилмасдан туриб XXI асрда илмий – техникавий ривожланишига кенг йўл очилмайди.

Лекин интеллектуал мулк ҳуқуқларига риоя этиш билан масала охиригача ҳал бўлмайди. Жаҳонда ноҳалол рақобат кураши тобора авж олиб бораётгани кузатилмоқда.

Ҳар бир давлат ноҳалол рақобат курашнинг олдини олиш учун қандай механизмларни ишга солиши керак? Тарихдан маълумки энг ишончли механизм бу ҳуқуқ бўлиши мумкин, зотан айнан ҳуқуқий механизмлар интеллектуал мулкни муҳофазалашга ишончли ва маданий ёндашувни таъминлайди.

Лекин давлат томонидан кафолатланадиган ишончли муҳофаза бу масаланинг бир томони холос. Халқимизнинг доно ибораси бор “ҳолва деган билан оғиз чучимайди”. Унинг муҳим таркибий қисми муайян кишиларнинг ўз ҳуқуқларини билиши ва бу ҳуқуқлардан амалиётда фойдалана олишидир.

Бугунги кунда Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиши учун исталган касбдаги ҳар бир ижодкор киши келажакда ўзининг интеллектуал мулкидан самарали фойдаланиш йўлларини аниқ тасаввур этиши жуда муҳимдир.

Интеллектуал фаолият одатда жуда кўп қиррали бўлиб кенг миқёсда ўзгариб туриши мумкин. Фан, санъат, техник ижодиёт – буларнинг барчаси интеллектуал меҳнат турларидир.

Бутун жаҳон интеллектуал мулк ташкилоти (БИМТ) қуйидагиларни ҳақли равишда ўзининг шиори деб эълон қилди.

Инсоният даҳоси жами санъат асарлари ва ихтироларнинг манбаидир. Бу асарлар инсонга муносиб ҳаёт кафолатидир. Барча турдаги санъат асарлари ва ихтироларни ишончли ҳимоялаш ҳар бир давлатнинг бурчидир.

Интеллектуал мулк объектларини кўриб чиқар эканмиз, шуни қайд этиш мумкинки, интеллектуал мулкда объектларнинг икки гуруҳи алоҳида ажралиб туради: санъат билан боғлиқ бадиий асарлар ва санъат тармоғи – хусусан янги буюмлар, товарлар ва технологияларни ишлаб чиқиш ва бозорга таклиф этиш билан боғлиқ объектлар.

Айнан ана шу вазиятлар XX асрда жаҳонда умум қабул қилинган халқаро ҳуқуқий стандартлар шаклланишига олиб келди, шунга мувофиқ интеллектуал мулк ўз ичига икки асосий ҳуқуқлар соҳасини олади:

- муаллифлик ва турдош ҳуқуқлар, унга мувофиқ илмий, адабий, мусиқий, бадиий, фотография ва аудиовизуаль асарларга ҳуқуқлар, шунингдек фонограмма ишлаб чиқарувчилар ва ижрочилар, эфир ва кабель эшиттиришлари ташкилотларининг ҳуқуқлари ҳимоя қилинади;
- саноат мулки, ихтиролар, фойдали моделлар, саноат намуналари, шунингдек товар белгилари ва хизмат кўрсатиш белгилари, товарларнинг келиб чиқиш жойи, фирма номларига ҳуқуқларни ўз ичига олади.

Санаб ўтилган барча муайян ҳуқуқий муҳофаза объектлари, хусусан, бадий асарлар ва санъат турлари, ихтиролар, товар белгилари, ЭҲМ учун дастурлар ва ҳоказолар интеллектуал мулк объектлари деб аталади.

-Муаллифлик ҳуқуқи адабиёт, фан ва санъат асарлари ўзининг аниқ ифо-

дасини топган шаклни муҳофаза қилади. Бундай ифодалаш шакли сўз, тимсоллари, мусиқа, сурат, уч ўлчовли предметлар ёки бундай шаклларнинг комбинацияси (масалан, кинофилмь ёки театр постановкаси, опера) бўлиши мумкин. Муаллифлик ҳуқуқлари асарларнинг исталган турини махсус рухсатсиз (муаллиф розилигисиз) нусха кўчириш, кўпайтириш ва бошқа усулда қайта тиклашдан муҳофазалайди .

-Саноат мулки, муаллифлик ҳуқуқидан фарқли равишда бевосита ғояни, хусусан буюмнинг турли шаклларда кўп марта қайта ишлатилиши мумкин бўлган техник, бадиий ва бошқа моҳиятларни муҳофаза қилади.

Патент давлат номидан саноат мулки объектига бериладиган ва муайян ҳудудда муайян вақт оралиғида амал қиладиган муҳофаза ҳужжатидир.
Лицензия бу патент эгасининг бошқа шахслар билан алоҳида ҳуқуқларининг бир қисмини сотиш (бериш) бўйича тузган ҳуқуқий битими (шартномаси) дир.

Тегишли амалиётда келишувчи томонларни белгилаш учун қуйидаги умум қабул қилинган атамалардан фойдаланилади:

Лицензиар – лицензия сотувчи.

Лицензиат – лицензия сотиб олувчи.

Лицензия савдоси – бу замонавий технологик алмашинув, демак, халқаро иктисодий муносабатларнинг харакатлантирувчи кучдир.

Универсал ахборот манбаларининг аҳамияти тобора ошиб бормоқда. Бугунги кунда бундай универсал ахборот манбаи патент ахборотидир.

Патент ахбороти – бу энг замонавий техник ютуқлардан тўла ҳажмда ва имкон қадар тез фойдаланиш демакдир. Патент ахбороти нафақат илмий-техникавий, балки катта тижорат ҳимматига эга.

Бугунги кунда Патентшунослик, лицензиялаш ва сертификациялаш ўз ичига ҳуқуқ, бошқарув, иқтисодиёт, прогнозлаш, информатика ва бошқа соҳалардаги билимларни қамраб олган мустақил илмий фандир.

Унинг тармоқлараро фан эканлиги бу фаннинг муҳим хусусиятларидан биридир.

Интеллектуал мулк ҳуқуқи ўз ичига қуйидаги бўлимларни олади:, патент ахбороти, патент тадқиқотлари, патент экспертизаси, халқаро лицензия савдоси, ихтирочилик ижодиёти услубияти, инновация фаолияти, ва ҳоказо. Фаннинг бундай ихтисослашуви малакали патентшуносдан ҳуқуқий, техник, иқтисодий ва бошқа масалаларни мукаммал билишни талаб қилади.

Патентшунослик, лицензиялаш ва сертификациялаш фани табиий ва техник фанларни иқтисодиёт ва ҳуқуқ билан уйғун бирлаштира оладиган предмет бўлиб қолди.

Бундай билимлар ҳар бир мутахассисга ҳуқуқий ва иқтисодий жиҳатдан тўғри қарорлар қабул қилиш учун қўл келади.

Хусусан, фанни ўрганиш натижасида ҳар бир талаба қуйдагиларни билиши шарт:

- интеллектуал мулк ҳуқуқларининг асосий тамоииллари ва интеллектуал мулк объектларини муҳофазалаш афзалликлари;
- Ўзбекистон Республикасининг интеллектуал мулк объектларини

муҳофазалаш соҳасидаги қонунчилиги;

- интеллектуал мулк объектларини муҳофазалаш соҳасидаги халқаро битим ва шартномалар;
- Ўзбекистон ва хорижда ихтирога патент олиш учун талабномаларни тузиш ва бериш тартиби;
- буюмлар дизайнини (саноат намуналари) муҳофазалаш ва товар белгиларини рўйхатга олиш;
- патент-ахборот тадқиқотлари ўтказиш, патент хужжатларини таҳлил қилиш усуллари;
- лицензия шартномаси тузиш қоидалари ва интеллектуал мулкнинг лицензия савдосини ташкил этиш усуллари;
- инновация фаолияти ва интеллектуал мулкни бошқариш асослари;
- янги ихтироларни яратиш усуллари ва бошқа кўп масалалар.

Бугунги кунда ҳаётимизни интеллектуал мулк объектлари: ихтиролар, саноат намуналари, товар белгилари, санъат асарлари ва ҳоказоларсиз тасаввур килиб бўлмайди . Интеллектуал мулкни ҳар доим ҳам муайян кишилар яратади. Айнан малакали ва истеъдодли мутахассислар: олимлар, ихтирочилар, тадбиркорлар жамиятни юритувчи кучдир.

Бугунги кунда давлатнинг тараққиёти учун ҳар бир ишчи-хизматчининг нафақат зарур ишлаб чиқариш билимлари ва малакаларини ошириш, балки интеллектуал мулк ҳуқуқлари соҳасидаги асосий билимларини эгаллаши ҳам ўта муҳимдир. Ҳозирги вақтда фақат ана шу билимлар илғор технологиялардан янада самарали фойдаланиш имконини бериб, ўз ихтироларини, саноат намуналари, микрочизмалар топологияси ва бошқа объектларни ишлаб чиқишга сарфлашга туртки бўлади.

Муаллифларнинг ва уларнинг ҳуқуқий ворисларининг фуқаролигидан қатъий назар, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида эълон қилинган ёки бирон-бнр объектив шаклда бўлган асарларга татбиқ қилинадн;

Ўзбекистон Республикаси сарҳадларидан ташқарида эълон қилинган ёки бирон-бир объектив шаклда бўлган асарларга татбиқ қилинади ҳамда Ўзбекистон Республикаси фуқароси бўлган муаллифларга (уларнннг ҳуқуқий ворисларига) тегишли деб тан олинади.

Ўзбекистон Республикаси сарҳадларидан ташқарида эълон қилингап ёки бирон-бир объектив шаклда бўлган асарларга татбиқ қилинади ҳамда Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларнга мувофиқ бошқа давлатларпинг фуқароси бўлган муаллифларга (уларнинг ҳуқуқий ворисларига) тегишли деб тан олинади.

Башарти, асар Ўзбекистон Республикаси сарҳадларидан ташқарида биринчи марта эълон қилипган санадан сўнг ўттиз кун ичида Ўзбекистон Республикаси ҳудудида эълон қилинган бўлса, Ўзбекистон Республикасида эълон қилинган деб ҳисобланади.

Асар Ўзбекистон Республикаси ҳудудида Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига мувофиқ қўриқлапиши лозим бўлса, унинг муаллифи ҳудудида муаллифлик ҳуқуқнни олиш учун асос

бўлиб хизмат қилган юридик факт содир бўлган давлатнинг қонуни билан аниқланади.

1.1-rasm

**Xalqaro intellectual mulk belgisi.**[2]




Intellectual mulk Ҳуқуқнинг ривожланиш тарихи бевосита давлат тарихи билан боғлиқ. Ҳуқуқ иқтисодий базис ва унинг асосида жамиятнинг маданий ривожланиши демакдир ва бундан бошқа нарса бўлиши мумкин эмас деб таърифлаш мумкин.

Ҳуқуқ, хусусан, ҳуқуқий тизим муайян ижтимоий муносабатлардан бошланадиган айрим меъёрлардан ташкил топади.

Ҳуқуқ меъёри айрим шахслар, ташкилотлар, давлат органлари ва ҳоказоларнинг ўзаро муносабатларини тартибга солувчи қоидалардир. Фақат давлат бутун мамлакат миқёсида ижтимоий муносабатларнинг ҳуқуқий тартибини таъминлаб бериши мумкин.

Ҳуқуқ тизими ўз ичига турли хуқуқ соҳаларини қамраб олади, улар ўз навбатида кичик соҳа ва институтларга бўлинади. Ҳуқуқий тартибга солиш предмети бўйича бирлаштирилган ҳуқуқий меъёрларнинг алоҳида гуруҳи ҳуқуқ соҳасидир. Ҳуқуқнинг ҳар бир соҳасига уни тартибга солиш предметининг хусусиятларидан келиб чиқадиган ҳуқуқий тартибга солишнинг ўзига мос услуби хосдир.

Интеллектуал мулк ҳуқуқи ёки интеллектуал мулк фуқаролик ҳуқуқининг кичик соҳасидир. Патент ҳуқуқи ва фуқаро муносабатлари иштирокчиликларини индивидуаллаштириш воситаларини муҳофазалаш, шунингдек, ноанъанавий объектларни муҳофазалашдан иборат бўлган муаллифлик ҳуқуқи ва саноат мулки шу кичик соҳанинг институтларидир.

[2] Xalqaro intellectual mulk agentligi rasmiy sayti.www.inpr.org

Патент ҳуқуқи. У дастлаб феодализмнинг сўнги даврларида феодал жамият негизида хўжалик юритишнинг капиталистик усули вужудга келиб, ривожлана бошлаши билан юзага келди. Патент ҳуқуқи – ишлаб чиқаришнинг капиталистик усули устун келиши ва ҳокимиятнинг буржуазия йўлига ўтиши натижасида шаклланди.

Хўжалик юритишнинг капиталистик усулига ўтиш билан сифат жиҳатидан янги вазият юзага келди. Унга зарур моддий-техника базасини яратиш саноат инқилоби тусини олди. Европа XVI асрнинг ўрталарида Буюк саноат инқилоби даврини бошдан кечирди ва у патент ҳуқуқи юзага келиши учун иқтисодий шарт-шароит яратди.

Бу инқилобнинг асосий босқичларидан бири қўл мануфактурасидан кўплаб ихтиролардан фойдаланишга асосланган машиналар ишлаб чиқаришга ўтиш бўлди.

Капитализмда иш қуроллари ва ишлаб чиқариш воситаларига хусусий мулкчилик типи бўйича ихтироларни ўзлаштиришга эҳтиёж юзага келди.

Маълумки, ихтироларни яратиш ва ишлаб чиқаришга жорий этиш ҳар доим дастлабки сармоя сарфлашни талаб этади. Лекин ҳеч бир тадбиркор ўзи сарфлаган маблағдан фойда олишга улгурмай туриб рақобатчилар худди шу ихтиродан нусха олиб унинг тажрибасидан фойдалана бошламасликларига кафолат олмасдан туриб бундай сармояларни хавф-хатарга қўя олмайди. Айнан ана шу объектив омил сабабли ихтиролардан фойдаланишда ундан етарли даражада узоқ муддат фойдаланиш ва рақобат курашида ютиб чиқиш имконини берадиган монополия зарур бўлиб қолди.

Бундай монополияни яратиш учун юридик восита–патент Европада феодал жамиятидан буён маълум эди.

Феодализмда патентдан турли мол-мулк эгалари ва қирол ўз хазинаси фойдасига даромад манбаларини мустаҳкамлаш воситаси сифатида кенг фойдаланар эди. Феодал патент тизими капитализм ривожланиши учун тўсиқ эди, чунки қирол кўплаб патент бериш йўли билан исталган нарсадан фойдаланишга яккаҳокимлик (монопол) ҳуқуқни ўзи хоҳлаганча белгилай оларди. Буржуазия табиийки, бундай ҳолатга, хусусан феодал монополиялар ва ихтироларга монополиялар жорий этишга қарши фаол кураша бошладилар. Бунда иқтисодиёт ихтироларга монополиялар феодалнинг марҳамати билан эмас, балки мунтазам, яъни қонунда белгиланган қоидалар бўйича берилиши талаб қилинарди.

Патент ҳуқуқини ҳимоялаш соҳасидаги илк қадамлар Англияда қўйилди. Мамлакатда феодалларга тегишли имтиёзлар тизимини патент ҳуқуқига айлантириш жараёни XVII асрда бошланди.

АҚШ Англиядан кейин ихтироларни муҳофазалаш қабул қилинган мамлакат бўлди.

Европанинг бошқа мамлакатларида патент қонунлари нисбатан кечроқ қабул қилинди.

Миллий патент тизимларини иккита гуруҳга бўлиш мумкин. Биринчи гуруҳни патент тизимини “континентал ҳуқуқ” тамойили белгилаб берадиган

мамлакатлар ташкил этади. Иккинчи гуруҳини миллий ҳуқуқларига Англия ҳуқуқи таъсир ўтказган мамлакатлар ташкил этади.

1.2-rasm

**Xalqaro intellectual mulk tashkiloti.**[3]

Ҳар икки йўналишдан ташқари миллий патент тизимларини шартли равишда тўрт асосий: герман, роман, инглиз ва америка гуруҳига бўлиш мумкин, улар патент ҳуқуқининг асосий тизимлари ҳисобланади.

Патент ҳуқуқи ҳамма вакт иқтисодий муносабатлар билан белгиланади, чунки у жамият иқтисодий ривожланишининг зарур омили ҳисобланади.

Мамлакатимизнинг асосий қонуни Ўзбекистон Республикаси Конституциясидир. Конституция Ўзбекистон қонунчилигини ишлаб чиқишнинг асосий қоидаларини белгилаб беради. Бизнинг интеллектуал мулк объектларини ҳуқуқий муҳофазалаш соҳасидаги амалдаги қонунчилигимиз бевосита мулкка эгалик ва илмий-техник ижодиёт эркинлиги ҳуқуқлари акс этган Конституциянинг IX бўлими 36- ва 42- моддаларидан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқилган.

Интеллектуал мулк объектларини яратиш, муҳофазалаш ва фойдаланиш билан боғлиқ ҳуқуқий муносабатлар фуқаролик ҳуқуқи соҳаси ҳисобланади ва Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси билан тартибга солинади.

1994 йил 6 майда қабул қилинган ва 1997 йил 26 декабрда ўзгартирилган “Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”ги қонун, shuningdek bu borada boshqa ko’plab rivojlangan mamlakatlarda salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo’lib, shulardan Yaponiya, Singapur, Germaniya, Fransiya kabi davlatlarning usullari keng miqyosda o’rganilgan va hayotga tadbiq etilib o’zining amaliy ahamiyatini hanuz yoqotmagan.;

[3] Rasmiy sayt.www.wikipedia.org

## 1.2 Iqtisodiyotni rivojlantirishda intellectual mulk himoyasini o’rni

2008 yilda AQShda boshlangan inqiroz butun dunyoni tezlik bilan qamrab oldi. Bu esa Jahon tovarlar savdosida o’z aksini topa boshladi, talabning tushib ketishi, valyuta kurslaridagi o’zgarishlar va neft, gaz kabi tovarlar narxining o’ynab turishi xalqaro bozorda beqarorlikni keltirib chiqardi va 2008 yilning 4-choragida jahon tovarlar savdosi -11.8 % ga tushib ketgan bo’lsa bu tushish 2009 yilning II choragida o’zining eng past nuqtasiga yetdi.(-33.2 %) Natijada 2009 yilda jahon tovarlar savdosida -22.7 % ga tushish kuzatildi. Jahon savdosidagi bunday pasayish 1930 yildan beri hali kuzatilmagan edi. Shunday og’ir paytda intellektual mulk himoyasi “supply-side” iqtisodni ajralmas qismi sifat-ida gavdalanib, ko’pchilik mamlakatlar shu yo’nalishni tanladi, xususan O’zbekiston ham.

1.3- rasm.

**Intellectual mulk obektlatini o’sishi[4] (mln. dona)**

*1-жадвал*

| Кўрсаткичлар | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | Барчаси |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Ихтиролар | 16 | 21 | 25 | 12 | 9 | 5 | 88 |
| Фойдали моделлар | - | 2 | 5 | 2 | 2 | 2 | 13 |
| Саноат намуналари | 5 | 3 | 7 | 6 | 4 | 4 | 29 |
| Жами | 21 | 26 | 37 | 20 | 15 | 11 | 130 |

2008 yilda jahonda intellectual mulk savdosining real o’sishi ancha sekinladi va 2 % ni tashkil qildi, 2007 yilda esa bu ko’rsatgich 6% ga yetgan edi. Shunday bo’lishiga qaramasdan bu jahon YaIM real o’sishidan tezroq o’sayotir.

Jahon intellectual mulk savdosi nominal qiymati bo’yicha hisoblaganda 2008 yilda 15 % ga o’sgani holda 150 mlrd AQSh dollarni tashkil qildi. Bu paytda jahon patent savdosi 11 % ga o’sgani holda 370 mlrd dollarni tashkil qildi.

Shu yili Germaniya intellectual mulk tovarlar eksporti hajmi 84 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan holda birinchi bo’lgan bo’lsa, AQSH tovarlar eksporti xajmi 42 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan holda ikkinchi bo’ldi. Shunga qaramay AQSH tovarlar eksportida 2008 yil oxiriga kelib ayrim tovarlar savdosida pasayish kuzatildi. Masalan ofis va aloqa jixozlari eksporti 2008 yilning dastlabki uchta choragida o’rtacha 17 % o’sgan bo’lsa, IV chorakda bu ko’rsatgich -7% ga tushib ketdi va uning xajmi 381.5 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi, lekin bu qimmat va aniq hisoblandigan bazibir intellectual mulk savdosi yordamida qoplab yuborildi.

1.4-rasm

[4]World Intellectual Property Organization. International Property Statistics 2011 U.S

**Ixtirolarga ro'yhatdan o'tkizilgan shartnomalarning sohalar bo'yicha taqsimlanishi[5] (mln.dona)**

**Ихтироларга рўйхатдан ўтказилган шартномаларнинг соҳалар бўйича тақсимланиши**

*3-жадвал*

| Соҳа | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | Ҳаммаси |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Қишлоқ хўжалиги | - | 3 | 4 | 2 | 1 | 5 | 15 |
| Электротехника | 3 | 5 | 12 | 8 | 5 | 2 | 35 |
| Кимё ва кимё технологияси саноати | 8 | 11 | 14 | 2 | 1 | 1 | 37 |
| Енгил ва озиқ-овқат саноати | - | - | - | 1 | - | - | 1 |
| Қурилиш ва қурилиш материаллари | 5 | 1 | 4 | 3 | 5 | 2 | 20 |
| Машинасозлик | 1 | - | - | - | - | - | 1 |
| Тиббиёт ва фармацевтика | 1 | 2 | 1 | 1 | 1 | - | 6 |
| Халқ истеъмоли моллари | 2 | 3 | 2 | 3 | 2 | 1 | 13 |
| Қолганлари | 1 | 1 | - | - | - | - | 2 |
| Жами | 21 | 26 | 37 | 20 | 15 | 11 | 130 |

Jahon intellectual mulk tovarlar savdosining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan avtomobil sanoati retsetsiya davrida qattiq zarbaga uchradi. Avtomobil patenti yirik eksportyori Yaponiyaning AQSh ga avtomobil eksporti 2008 yilning to'rtinchi choragida -40 % ga tushib ketdi va yillik hisobda -25 % ga tushish kuzatildi. 2008 yilda rivojlangan davlatlar intellektual tovarlar eksportining 12 % ni avtomobil patenti eksporti tashkil qildi.

Jahon moliyaviy inqirozi 2008 yil to'rtinchi choragida intellektual mulk savdosi 20 % ga tushgan bo'lsa, patent savdosida bu tushish 10-15 % ni tashkil qildi..

AQSh intellectual mulk eksporti 52 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan holda AQSh dollarini tashkil etgani holda Jahon intellectual mulk savdosida birinchilikni saqlab qoldi. Дастлабки экспертизанинг моҳият жиҳатидан экспертизадан фарқи энг аввало шундаки, дастлабки экспертиза вақтида талабнома берилган объектнинг (ихтиро, фойдали модель) маҳаллий янгилик талабларига мувофиқлиги текширилади, яъни патент экспертлари фақат Ўзбекистондаги мавжуд патент ҳужжатларини текширадилар, моҳият жиҳатидан экспертизада эса объектнинг жаҳон техника даражасига мувофиқлиги текширилади. Патент идораси маълумотлар расмий равишда чоп этилгандан сўнг уч ой ўтгач патент эгасига (ёки товар белгиси эгасига) муҳофаза ҳужжати, тегишлича патент, дастлабки патент ёки гувоҳнома беради. Патент, дастлабки патент ёки гувоҳнома Ўзбекистон Республикаси номидан берилади ва Патент идораси раҳбари томонидан имзоланади. Шуни қайд этиб ўтиш керакки, ҳамма вақт битта объектга фақат битта муҳофаза ҳужжати (патент, дастлабки патент

[5] [5]World Intellectual Property Organization. International Property Statistics 2011 U.S (Xalqaro mulk statistikasi 2011.)

ёки гувоҳнома) берилади. Агар патент эгаси бир нечта бўлса (масалан, икки фирма ёки икки ҳаммуаллиф) улар битта патент оладилар. Қайд этиб ўтамиз-ки, кейинчалик патент эгаси патент ёки дастлабки патентни кучда сақлаб ту-риш учун мунтазам равишда бож тўлаб туришлари шарт, бож тўламаслик муҳофаза ҳужжатининг амал қилиши тўхташига олиб келиши мумкин. Бугунги кунда жаҳондаги ҳар бир мамлакат ўзи алоҳида яшай олмайди. Ҳалқаро савдо, инвестицияларнинг бир давлатдан иккинчисига ўтиши, қўшма корхоналарнинг фаолият кўрсатиши ва ҳамкорликнинг бошқа шакллари аллақачон жаҳон иқтисодиётининг ажралмас омили бўлиб қолди.

Бундан ташқари йил сайин жаҳонда иқтисодий интеграция жараёнларининг кучайиб бориши кузатилмоқда.

Рақобат кураши шароитида фақат ишлаб чиқаришнинг яхшиланган усулларини қўлланиш ёки техник-иқтисодий ва истеъмол (шу жумладан ташқи кўриниши ва савдо имижи) хусусиятлари яхшиланган товарларни яратиш йўли билан қўшимча фойда олиш мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг “Ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналари тўғрисида”ги Қонуни 06.05.1994 йилда қабул қилинган ва мазкур қонунга 30.07.2008 да ўзгартириш киритилган. Ушбу Қонуннинг асосий мақсади Ўзбекистон Республикасидаги ихтиролар, фойдали моделлар ва саноат намуналарини ҳуқуқий муҳофаза қилиш ҳамда улардан фойдаланиш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат. Саноат мулки объектлари тўғрисидаги қонун ҳужжатлари ва бошқа ҳужжатлардан иборат. Ўзбекистон Республикаси Давлат патент идораси саноат мулки объектларини ҳуқуқий муҳофаза қилиш соҳасидаги давлат сиёсатининг амалга оширилишини таъминлайди.

Патент идораси саноат мулки объектларига патент бериш ҳақидаги талабномаларни кўриб чиқиш учун қабул қилади, улар бўйича давлат экспертизасини ўтказади, уларни давлат рўйхатига олади, саноат мулки объектларига патентлар беради, расмий ахборотнома нашр этади, саноат мулки объектлари тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг қўлланилишига доир қоидалар қабул қилади ва тушунтиришлар беради ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланадиган Патент идораси тўғрисидаги низомга мувофиқ бошқа ваколатларни амалга оширади.

Давлат бюджети маблағлари, патент божлари, шунингдек Патент идораси томонидан кўрсатиладиган хизматлар ва тақдим этиладиган материаллар учун тўланадиган ҳақ Патент идораси фаолиятини молиялаштириш манбалари ҳисобланади.

Jahon intellectual mulk eksportining 46 % ga egalik qiluvchi Yevropa shu mahsulotlar eksportini 19 % ga ko’paytirdi, shuningdek 19 % li ko’rsatkich bilan 2-eng yirik ta’minotchi bo’lgan Osiyo mazkur eksportini 20 % ga ko’paytirdi. Bu borada uchinchi o’rinda borayotgan Shimoliy Amerikaning eksporti 17 % ga o’sdi.

Janubiy va Markaziy Amerika bu ko'rsatkich bo'yicha 2000-yildan beri eng yuqori ko'rsatkichni namoyon qildi (23.4 %).

1.5- rasm.

**Intellectual mulk obektlatini o'sishi[6] (mln. dona)**

*2-жадвал*

| Шартнома тури | 2005 | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | Барчаси |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| ИМОга ҳуқуқни ўтказиш тўғриси-даги шартномалар | 10 | 8 | 15 | 6 | 2 | 1 | 42 |
| Мутлақ лицензия шартномалари | 1 | 1 | 1 | 4 | 2 | - | 9 |
| Оддий лицензия шартномалари | 10 | 17 | 21 | 10 | 11 | 10 | 79 |

Xalqaro intellectual mulk savdosi milliy xo'jaliklar o'rtasida to'lanadigan jami tovar aylanmasi ko'rinishidagi mehnat mahsulotlarini ayirboshlashning o'ziga xos formasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunda davlat va xususiy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar, ayrim hollarda jismoniy shaxslar ham jahon bozorida asosiy sub'yektlar sifatida qatnashadi. Xalqaro savdoning asosiy tarkibiy qismidan biri bo'lmish intellectual mulk savdosi eksporti va importi hisoblanadi, biroq intellectual mulk oqimlarining ma'lum mamlakat hududi orqali o'tib ketuvchi ko'rinishi - tranzitni ham esda tutish kerak, chunki uni amalga oshirish uchun ma'lum haq to'lanadi, bunga kompaniyalarning transport foc vas of xarajatlar qilishadi kiradi.

XX asrning ikkinchi yarmidan intellectual mulk savdosi tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. 1950-2008 yillar orasidagi davrda xalqaro intellectual mulk oboroti 20 barobar o'sdi. G'arb mutaxassislarining fikricha 1980 va 2000 yillar oralig'idagi davrni intellectual mulk savdosi uchun «oltin asri» deb aytish mumkin. Aynan shu davrda intellectual mulk savdosi yiliga o'rtacha 15% ga o'sdi.

Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy faoliyatining sekinlashuvi 2007-yilda global savdo hajmining kamayishining asosiy omili bo'ldi. Shu yili real tovarlar eksportining o'sishi 5.5 % baholandi, bu esa 2006-yildagi ko'rsatkichdan 3 % kam demakdir.

# Ikkinchi bob. Jahon savdosdida intellectual mulk savdosining ahamiyati

## 2.1 Jahonda intellectual mulk savdosing iqtisodiy salohiyati

Intellektual mulk savdosini qiymati yiliga 100 millionlab AQSH dollaridan yuqri ekanligini takidlaydigan bo'lsak bu holat qanchalik yirik potensal va taraqqiyotga ega ekanligi yaqqol nomoyon bo'ladi. Bu sohada faoliyat yurityatgan eng katta tashkilotlardan biri bu WIPO hisobandi.

[6]World Intellectual Property Organization. International Property Statistics 2011 U.S

Бутун жаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг тарихи 1883 ва 1886 йиллардан - Саноат мулкини муҳофаза қилиш Париж конвенцияси ва Адабий ва бадиий асарларни муҳофаза қилиш Берн конвенцияси қабул қилингандан бошланган. Бу Конвенциялар "Халқаро бюролар" деб номланган ўз котибиятларини ташкил этишни кўзда тутган эди. 1893 йилда бу икки котибият "Интеллектуал мулкни муҳофаза қилиш бўйича бирлашган халқаро бюролар" ёки француз тилида қисқартирилган БИРПИ номи остида ягона котибиятга бирлаштирилди.

Ҳозирги Бутун жаҳон интеллектуал мулк ташкилоти (қисқартирилган шаклда "БИМТ", инглиз тилида - "WIPO", француз ва испан тилларида — "OMPI") 1967 йил 14 июлда имзоланган "Бутун жаҳон интеллектуал мулк ташкилотини таъсис этиш Конвенцияси"га мувофиқ тузилган. Бу Конвенция 1970 йилда кучга кирган.

Ҳозирда БИМТ Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) тизими таркибига (1974 йил декабридан) кирувчи ихтисослашган муассасадан иборат.

2001 йил 1 январига келиб ташкилот 175 давлатни бирлаштирди.

БИМТнинг фаолияти кўп қирралидир. У миллий қонунчиликларни замонавийлаштириш бўйича янги халқаро битимлар ва лойихаларни ишлаб чиқиш билан шуғулланади, ривожланаётган мамлакатларга техник ёрдам кўрсатади, патент маълумотларини йиғади ва тарқатади, ойлик журналлар (хусусан, "Саноат мулки" ва "Муаллифлик хуқуқи” журналларини) чиқаради, интеллектуал мулк объектларини ҳимоя қилиш соҳасида халқаро тартибларнинг бажарилишини таъминлайди, БИМТ аъзо давлатлари орасида бошқа кўринишдаги маъмурий ҳамкорликни ривожлантиришга кўмаклашади.

БИМТ ўз фаолиятида қуйидаги асосий мақсадларни кўзда тутади:

1. Давлатлар ўртасида ҳамкорлик, шунингдек, бошқа ихтиёрий халқаро ташкилотлар билан ўзаро алоқа йўли билан бутун жаҳонда интеллектуал мулкни муҳофаза қилиш ва ундан фойдаланишга кўмаклашиш.

Интеллектуал мулкни муҳофаза қилиш соҳасида Иттифоқлар ўртасида маъмурий ҳамкорликни таъминлаш. Париж Иттифоқи, Берн Иттифоқи, Мадрид Иттифоқи, РСТ Иттифоқи ва ҳоказо.

БИМТ Конференцияси муҳимлиги жиҳатидан БИМТнинг иккинчи органи ҳисобланади. Ассамблеядан фарқли равишда, иттифоқларда иштирокидан қатъи назар барча БИМТ аъзо мамлакатлари Конференция аъзоси ҳисобланади. Конференциянинг вазифаларига интеллектуал мулк соҳасида барча мамлакатларга умумий аҳамият касб этадиган масалаларни муҳокама қилиш ва улар бўйича мос тавсияномалар қабул қилиш киради.

БИМТнинг учинчи органи асосан барча Иттифоқлар учун аҳамиятли бўлган келишув тавсияномаларини ишлаб чиқиш учун тузилган Мувофиқлаштириш комитети ҳисобланади. Хусусан, Мувофиқлаштириш комитета Ассамблея ва Конференциянинг кун тартибини тайёрлайди, Ассамблеяга Бош

директор лавозимига номзодни тақдим этади ва ҳоказо.

Бош Ассамблея ва Конференция навбатдаги сессияларга икки йилда бир марта йиғилса, Мувофиқлаштириш комитети ўз сессияларини йилда бир марта ўтказади.

Талабнома берувчилар томонидан РСТ, Мадрид ва Гаага тизимлари бўйича тўланадиган халқаро божлар Халқаро бюронинг асосий даромад манбаи ҳисобланади. Бундай божлар, одатда, БИМТ даромадлари умумий йириндисининг 73%ни ташкил этади. БИМТнинг бошқа даромадлари унга аъзо давлатларнинг ҳукуматлари тўлайдиган бадаллар (ўртача 18%) ва БИМТ нашрларини сотишдан тушадиган даромадлардан ташкил топади.

БИМТ шунингдек ривожланаётган мамлакатларда патент тизимининг шаклланишига техник ва молиявий ёрдам кўрсатади. 2001 йил 1 январдаги ҳолатга кўра Европа конвенциясининг иштирокчилари қуйидаги давлатлар ҳисобланади: Австрия, Бельгия, Буюк Британия, Германия, Греция, Дания, Ирландия, Испания, Италия, Кипр, Лихтенштейн, Люксембург, Монако, Нидерландия, Португалия, Туркия, Финляндия, Франция, Швейцария, Швеция. Bu davlatlarning borligini o’zi ham intellectual mulk savdosining qanchalik yuqori potensialga ega ekanligi ko’rsatib turibdi. Бундан ташқари, Европа конвенциясига Албания, Латвия, Литва, Македония, Руминия ва Словениянинг қўшилиши кутилмоқда.

Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari, shuningdek, Markaziy Farg'ona hududi va Qoraqalpog'iston Respublikasida irrigatsiya hamda melioratsiya inshootlarini qayta tiklash uchun 2010 yilda xalqaro moliya institutlarining 62 million dollardan ziyod mablag'lari jalb qilindi va o'zlashtirildi. Amalga oshirilgan ana shunday keng miqyosdagi ishlar natijasida 260 ming gektar sug'oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilandi va bu qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini, fermer hamda dehqon xo'jaliklarining daromadini oshirish uchun mustahkam zamin bo'lib xizmat qilmoqda. O'tgan yili xizmat ko'rsatish va servis sohasida 13,4 foiz o'sishga erishildi, so'nggi o'n yilda esa aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar hajmi, kishi boshiga hisoblaganda, qariyb 20 barobar oshdi. Biz bu borada mobil aloqa, internet, videotelefon tizimi, raqamli televideniye, zamonaviy bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, injiniring va boshqa zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bugungi kunda yurtimiz mobil aloqaning rivojlanish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoda oldingi o'rinda turgan o'nta mamlakat qatoriga kiradi. O'zbekistonda mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilarning umumiy soni 2000 yilga nisbatan – shunga e'tibor beringlar – 200 barobar oshib, 19 milliondan ortiq abonentni tashkil etmoqda. Agar o'n yil avval mamlakatimiz aholisining har ming nafariga 4 donadan kam mobil telefon to'g'ri kelgan bo'lsa, bugun bu ko'rsatkich 600 donadan oshib ketdi. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz sobiq ittifoq hududida birinchilardan bo'lib raqamli va keng formatli televideniyega to'liq o'tish bo'yicha katta miqyosdagi dasturni amalga oshirishni boshladi va bu jarayon 2015 yilda nihoyasiga yetkaziladi. Aholining internet tarmog'idan foydalanish imkoniyati kengayib borayotganini albatta ijobiy baholash lozim. 2010 yilda internet xizmatidan foydalanuvchilar soni 1,4 barobar ko'paydi va 6,6 million kishidan oshdi. Ayni vaqtda internet xizmatini ko'rsatish tariflarini bosqichma-bosqich kamaytirib borish hisobidan undan foydalanuvchilar

uchun sharoitlar tobora yaxshilanmoqda. Xususan, 2010 yilda bu boradagi tariflar 20 foizga pasaytirilganini alohida qayd etish kerak.

Biz joriy etgan bunday mexanizm bankrot korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash uchun banklar tomonidan qo‘shimcha investitsiya kiritish, ana shunday korxonalarni moliyaviy sog‘lomlashtirish, yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etish, shuningdek, ish o‘rinlarini qayta tiklash va yangi ish o‘rinlarini yaratishni ko‘zda tutadi.

Mintaqalardagi iqtisodiy  faollikni talablari va zaminlari mana shular. Ularning bajarilishi va shallantirilishi innovatsion ishlab chivarishni rivojlantirishda yuzaga keladigan chetki rayonlarni iqtisodiy rivojlantirish bo’yicha kamsitilishini oldini oladi. Hududiy nuqtai nazardan olinganda eng ilg’or mintaqalar, O’zbekiston Respublikasi mahsulotlarining eng salmoqli eksportchilari Qashqadaryo,  Navoiy, Andijon, Toshkent va Farg’ona viloyatlaridagi xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalardir. Keyin ancha katta farq bilan Samarqand viloyati turadi.

3.1-rasm

**Hududlaning ekportdagi ulushi[9] (% hisobida, 2009 )**




Samarqand viloyati 2009 yilda o’zining ulushi bo’yicha umumrespublika ko’rsatkichlarida YaIM bo’yicha 6,4 % ni tashkil qilishi, bandlar soni bo’yicha 10,3 %, qishloq xo’jaligi mahsulotlari bo’yicha  12,6 %, eksport bo’yicha bor-yo’g’i 1,3 % ga tengligini hisobga olsak, bu yerda eksportga yo’naltirilgan ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish  uchun yetarlicha zaxira  mavjudligi  haqida xulosa chiqarish mumkin.

3.2-rasm

[9] O’zbekiston respublikasi Davlat Statistika Qo’mitasining 2010 yilgi hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.-56-b.

**Hududlaning YaIM dagi ulushi[10] (% hisobida, 2009)**




Qator viloyatlarda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning tarmoq tarkibi bir tomonlama rivojlanishi bilan ajralib turadi. Jumladan, Navoiy viloyatida ko'proq rangli metallurgiya mahsulotlari ishlab chiqariladi (73,1 %). Mamlakat iqtisodiyoti uchun rangli va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarish zarurati yuqori bo'lsada, bunday ahvol mintaqadagi ekologik vaziyatga ta'siri o'tkazmay qolmaydi. Qashqadaryo viloyatida tarmoq mahsulotining 70 % ga yaqini yonilg'i sanoatiga to'g'ri keladi, bu esa, shubhasiz bandlik sohasida nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Xorazm viloyatida esa erkaklar bandligi bo'yicha muammolar mavjud, chunki yengil sanoat nisbatan yuqori rivojlangan bo'lsada (49 %), qolgan barcha sohalar yetarlicha rivoj topmayapti. Xuddi shunday vaziyat Namangan va Surxondaryo viloyatlarida ham kuzatiladi – yengil sanoat ulushi tegishlicha 56,7 % va 57,3 % ni tashkil qiladi. Andijon va Samarqand viloyatlarida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish tarkibi bir yoqlamaligi bilan ajralib turadi. Andijon viloyatida sanoat mahsulotining 60 % i mashinasozlikka to'g'ri keladi, Samarqand viloyatida esa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarpish 43 % ni tashkil qildi.

Mintaqalarda investitsiya va eksport faoliyatini rivojlantirishda O'zR Prezidentining farmonlari katta rol o'ynaydi. Bular- "To'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishning qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida " gi farmon (11.04.2005.) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 maydagi PQ-879-sonli qarori; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2008 yil 3 iyuldagi 149-sonli qarori shular jumlasidandir.

[10] O'zbekiston respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining 2010 yilgi hisoboti asosida muallif tomonidan tuzilgan.47-b.

Keng ko'lamli ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi doirasida o'tgan yili 840 dan ortiq loyiha amalga oshirildi va bu mahalliylashtirilgan mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2008 yilga nisbatan 2,3 barobar oshirishni ta'minladi. Neft-gaz uskunalari, kimyo sanoati mahsulotlari, avtomobil sanoati uchun butlovchi qismlar va boshqa 120 dan ortiq yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilib, 2 mingga yaqin ish o'rni yaratildi. Natijada jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qaramay 2009 yilda Buxoro (129,8 %), Qashqadaryo (162,3 %), surxondaryo (104,7 %), Xorazm (106,1 %) va Toshkent shahrda (110%) ga eksport hajmi o'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatildi. Shu yili Namanga viloyatida esa 2008 yilgi natijaga erishildi. Qolgan viloyatlarda esa orqaga ketish kuzatildi, ayniqsa Andijon, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida keskin tushish kuzatildi.

Shu o'rinda Prezidentimiz tomonidan bir necha bor ta'kidlangan muhim masalaga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bu masala – mamlakatimizning qay bir hududi bo'lishidan, uning iqtisodiy resurslar va salohiyatga qanchalik boyligidan qat'iy nazar, ushbu hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi farovonligi va turmush darajasini yuksaltirish maqsadida barcha kuchlarni safarbar etish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizning hududlarida tarmoq Dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalarga ko'ra (3.3-rasm), qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun har bir hudud rahbarlari, yetakchi mutaxassis va xodimlari, qolaversa, shu hududning barcha aholisi o'z kuch-quvvat va imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishi lozim bo'ladi.

Ayniqsa, hududlar ushbu kuchlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishlari, ularni o'zaro uyg'un holda jamiyat manfaatlari ostida birlashtirishlari lozim bo'ladi. Iqtisodiyotning yangidan-yangi tarmoqlari rivojlanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tobora kengayib borayotgan bir sharoitda ko'plab investitsion dasturlarni hududlar kesimida ham amalga oshirish va bu orqali ularning rivojlanishini ta'minlashga harakat qilish lozim. Investitsiya dasturi doirasida 2010 yilda 200 dan ziyod loyiha amalga oshirildi. Jumladan, yiliga 50 mingta avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "M-300" rusumidagi yengil avtomobil ishlab chiqarishni o'zlashtirish", 200 ming tonna kaliy o'g'itlari ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan "Dehqonobod kaliy o'g'itlari zavodi qurilishi", "Xonjiza konida polimetall rudalarga ishlov berish" kabi yirik loyihalar, Navoiy kon-metallurgiya kombinati, "Navoiyazot" kompaniyasining bir qator yangi obyektlarini barpo etish ishlari va boshqa loyihalar nihoyasiga yetkazilganini ta'kidlash joiz.

2010 yilda "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi hududida xorijiy investorlar bilan erishilgan bitimlar doirasida 19 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Ana shu loyihalar doirasida jahon bozorida xaridorgir bo'lgan zamonaviy mahsulot ishlab chiqaradigan 7 ta korxona foydalanishga topshirildi.

Transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan mablag'lar investitsiyalar umumiy hajmida muhim o'rin egalladi. O'tgan yilning o'zida faqat avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun 378 million dollarga teng bo'lgan mablag' o'zlashtirildi va bu 2009 yilga qaraganda 31,5 foiz ko'p demakdir. Shuning hisobidan mamlakatimizda 270 kilometrlik zamonaviy avtomobil yo'li foydalanishga topshirildi.

3.3-rasm

**O'zbekiston hududlarida tarmoq Dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalar**[11]




innovatsion jihatidan raqobat va monopoliya to´g´risida keng tarqalgan qarashlarni, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini qayta ko'rib chiqish talab etiladi. Ayni damda, ko'pgina muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan korxonalar, o'z-o'zidan tabiiyki, bozorda monapol o'rinni egallash va saqlab qolishga intiladi. Shu maqsadda korxonalar iste'molchilar talabini chuqur o'rganishga, ularning talablarini sifatli qoniqtirishga qaratilgan ilmiy-texnikaviy tadqiqotlar olib borishga xarakat qiladi.

[11] Xodiyev B.Y., Bekmurodov A.Sh. "I.A.Karimovning «Asosiy vazifamiz –Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalari"ni o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma Toshkent.: ToshDIU, 2010.- 106-b.

Ijtimoiy nuqtai nazardan yirik korxonalar talab va taklifni oldindan o'rganish va raqobatning yo'qligi bois kichik raqobatbardosh korxonaga nisbatan jamiyatning cheklangan resurslaridan ko'proq samarali foydalanish imkoniga ega hisoblanadi.

Shunday qilib , respublika mintaqalarining yanada rivojlanishi faoliyat turlari raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan investitsiya-innovatsiya strategiyasini amalga oshirish bilan bevosita bog'liq bo'lib, unda mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilar raqobat afzalliklariga ega. Ushbu vazifani hal qilish uchun hududlarning raqobat salohiyatini obyektiv baholash va uni iqtisodiyotni liberallashtirish va moderinizatsiyalash sharoitida rivojlantirishga ko'maklashish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## 3.2 Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda jahon bozoriga integratsiyalashuv tendensiyasini faollashtirish

Eksport qiluvchi korxonalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va eksport tarkibini diversifikatsiyalash, mahsulotlarni sotishning yangi tashqi bozorlarini faol o'zlashtirish 2010 yilda eksport hajmining 10,8 foizga o'sishini va tashqi savdo balansining sezilarli miqdordagi ijobiy saldosini, mamlakat oltin-valuta zaxiralari o'sishini ta'minladi.

Xorijga investitsiya chiqarish faoliyati ikkinchi jahon urushidan keyin AQSh kompaniyalari tomonidan yevropani qayta tiklash jarayonida voqelikka aylangan. Mahalliy tadbirkorlar xorijga investitsiyalarini joylashtirishda ikki usuldan foydalanadi. Ulardan birinchisi, moliyaviy shakldagi portfel investitsiyalar bo'lib, unda jamg'arma egalari xorijiy mamlakatlardan qimmatli qog'ozlarni xarid qiladi yoki mablag'larni valyuta hisoblariga va bank depozitlariga joylashtiradi. Ikkinchisi esa investorlar to'g'ridan-to'g'ri mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish uchun xorijdagi moddiy ishlab chiqarish vositalariga sarmoya kiritadi. Ikkinchi usulda xorijiy mamlakatda ishlab chiqarish korxonasi tashkil etilishi yoki faoliyat olib borayotgan mahalliy korxonalar sotib olinishi mumkin.

Jahon amaliyotida kompaniyalarning tashqi bozorga chiqish yo'llari quyidagi bosqichlardan iborat. Dastlab firmalar tovarlarni Eksport qilish orqali xorij bozoriga kirib boradi va marketing tadqiqotlarini amalga oshiradi. Shundan keyin to'g'ridan-to'g'ri tashqi bozorga investitsiya joylashtirish orqali ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish va mahalliy arzon (ishchi kuchi, xom ashyolardan) resurslardan keng foydalanish ko'zda tutiladi. Kompaniyalarning tashqi bozorga chiqish usulining so'ngisi ishlab chiqarish texnologiyalarining litsenziyaga berish orqali amalga oshadi.

Bugungi kunda tashqi investitsiyalar asosida faoliyat olib boradigan kompaniyalar Transmilliy va Ko'p millatli ko'rinishida jahon miqyosida ishlab

chiqarish va savdo faoliyatlarini amalga oshirmoqda. Bu kompaniyalarning asosiy yutug'i yangi texnologiya ixtiro qilish va uni amalda joriy etishda namoyon bo'ladi. Ayni vaqtda bu kompaniyalar jahon ishlab chiqarishining yo'nalishini boshqarish bilan bir qatorda sarmoya va mehnat bozorlariga ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatish salohiyatiga ega. Shuning uchun bu kompaniyalar jahon bozorining globallashuvi va milliy xo'jaliklarning integratsiyalashuvida muhim rol o'ynamoqda.

So'ngi yillarda O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar jalb etish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida bevosita xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy va Eksport salohiyatini oshirishdagi roli o'sib bormoqda.

Bu borada to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan xorijiy investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lganda ozod qilinadi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga;
- 3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

Bu yo'nalishda aniq maqsadli ish olib borish nafaqat investitsiyalarni, balki eng avvalo, ilg'or texnologiya va nou-xaularni jalb etishni ko'zda tutadi. Ular esa O'zbekistonga jahon bozorida o'z mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Aytish kerakki, jiddiy xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng istiqbollar va imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari yetakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning mamlakatimizga o'z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta'minlaydi. So'nggi yillarda jalb etilgan hamda izchil va barqaror iqtisodiy o'sish, yangi yuqori texnologiyali ish o'rinlarini yaratish hamda aholi daromadi darajasini ko'tarishning ishonchli manbaiga aylangan uzoq muddatli investitsiyalar hajmi 35 milliard dollardan oshdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari bo'lgan neft-gaz va neft-kimyo sohalarida «Xitoy milliy neft korporatsiyasi», Janubiy Afrikaning «Sasol», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Lotte», «LG international», «SK» korporatsiyalari, Koreya milliy neft korporatsiyasi, Koreya milliy gaz korporatsiyasi, Rossiyaning «Gazprom» va «Lukoyl», Amerikaning «Texaco», Yaponiyaning «Mitsui» va «Marubeni» korporatsiyalari, mashinasozlik sohasida – Amerikaning «Jeneral Motors», Germaniyaning «MAN», Yaponiyaning «Isuzu»; aviatsiya infratuzilmasi va multimodal logistika sohasida – Koreyaning «Koreyan

Eyr» va Yaponiyaning «Mitsubisi»; oziq-ovqat va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish sohalarida – Shveytsariyaning «Nestle», Angliya-Amerikaning «VAT», kimyo sohasida – Ispaniyaning «Maksam»; to'qimachilik va yengil sanoat sohalarida – Koreyaning «DEU interneyshinal», Hindistonning «Spenteks», Yaponiyaning «Mitsubisi» va boshqa o'nlab xorijiy kompaniyalar, bank-moliya sektorida «Royal Bank of Scotland», «Koreya Taraqqiyot banki» va hokazolar yaqin sheriklar hisoblanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida xorijiy investorlar bilan birgalikda faoliyat olib borayotgan qo'shma korxonalarning soni 4 mingdan oshdi.

Respublikada faoliyat olib borayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning ishlab chiqarayotgan mahsulot hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Ayni vaqtda XIKlarning mamlakat YaIM dagi hissasi 2000 yilda 12.1 % dan 2009 yilda 22 % ga ortib bordi. XIK lar Respublikaning umumiy tashqi savdo aylanmasiga ham salmoqli hissa qo'shadi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha korxonalarning ushbu turi ulushi 2000yidagi 19,5 % dan 2009 yilda 38 % ga oshdi. Eksport bo'yicha ushbu ko'rsatkich tegishlicha 12,8 % va 27,5 % ni, import bo'yicha esa 25,7 % va 51 % ni tashkil qildi.

Ko'rilayotgan ko'rsatkichlar ijobiy dinamikaga ega bo'lsada, importni Eksportdan tezroq o'sishi Respublikada faoliyat yuritayotgan XIK larning Eksportga yo'naltirilganlik darajasi pastligidan dalolat beradi. Shubhasiz, ularningn faoliyati ichki bozorni zarur iste'mol tovarlari bilan to'ldirish imkonini beradi, ammo u tashqi bozorlar uchun yuqori sifatli tovarlarni ishlab chiqarishni yetarlicha kafolatlamaydi. Shu bois, xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalarning Eksportga yo'naltirilganligi darajasini oshirish ularni rivojlantirish strategiyasini muhim vazifalaridan bo'lib qolmoqda.

3.4-rasm

**XIKlarning sanoat va Eksportdagi ulushi[12]**

**(% hisobida)**

[12] O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining 2010yilgi xisobotiasosida muallif tomonidan tuzilgan. 61-b.




XIK lar Eksportining tovar tarkibini tahlil qilish natijalari  shuni ko’rsatdiki, unda mashini va asbob- uskunalar (20 %), energetika mahsulotlari (27 %), xizmatlar (6 %) va oziq –ovqat(3.6 %) mahsulotlari asosiy o’rinni egallaydi.

Tahlillar shuni ko’rsatdiki, XIK lar importida asosiy o’rinni mashina va asbob-uskunalar egallaydi. Agar 2000 yilda mazkur korxonar tomonidan amalga oshirilgan  import operatsiyalarining 58 % i mashina va asbob-uskunalar hissasiga to’g’ri kelgan bo’lsa, 2009 yilga kelib  bu ko’rsatkich 56,3 % ni tashkil etdi. XIK lar importida mashina va uskunalarning yuqori ulushga ega bo’lishi binchidan ularni import bojidan ozod qilingani bo’lsa, ikkinchidan  o’tish iqtisodiyoti  sharoitida maqsadga muvofiq  bo’lib, milliy  iqtisodiyot tarmoqlarini moderinizatsiyalashga, ishlab chiqarishga eng ilg’or texnika va texnoloiyalarni joriy etishga va kelajakda ichki va tashqi bozorga raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatadi.

Kuzatilayotgan passivlik holati  korxonalarning Eksport daromadlari import xarajatlarini qo’llash imkoniyatiga ega emas va ularning valyuta xarajatlari boshqa manbalar hisobiga olingan valyuta daromadlari bilan qo’llanmoqda. Bu holat xorijlik investorlarning mamlakatda yaratilgan imtiyozlardan ko’proq foydalanishga harakati, yakuniy iste’mol uchun emas ko’proq yarim tayyor tovar ishlab chiqarib Eksport qilishi, mamlakatda ishlab chiqarish mumkin bo’lsada ayrim tovar va resurslarni yaratilgan imtiyozlardan foydalanish uchun import qilinishi, shuningdek, bu kompaniyalar boshqa sheriklari bilan savdosini rivojlantirishi va olgan daramadlarining soliqqa tortishdan saqlab qolish uchun boshqa mamlakatlardagi filiallariga ulardan yuqori narxlarda tovar yoki xizmatlar import qilish orqali mablag’larni transfert qilishi, kompaniyaning asosiy markazi belgilab qo’ygan

joylardan xom ashyo va resurslarni xarid qilinishi va boshqalar tufayli kelib chiqishi mumkin.

XIK mamlakatga valyuta tushumini ko'paytirishdan ko'ra, xarajatlarning ortishiga zamin yaratayotgan ekan ularning faoliyat sohasi va tashqi savdosi ko'rib chiqilib, milliy iqtisodiyotning shartlariga muvofiqlashtirilishi zarur. Xususan, ularning Eksportining tarkibi chuqur qayta ishlangan tovarlardan iborat bo'lishi va investitsiya kiritayotganda ana shunday tayyor mahsulotlarni ishlab chiqaradigan texnolgiyalarni olib kelishiga qarab imtiyozlar belgilanishi, importining tarkibi chuqurlashtirilib mamlakatda ishlab chiqarish uchun zarur tovarlardan iborat bo'lishi, imtiyozlar berilayotganda importi bilan Eksportining nisbati ham inobatga olinishi, ya'ni Eksportning ortishi imtiyozlarning ortishiga, importning ortishi esa imtiyozlarning mutanosib ravishda kamayishiga olib kelishi kerak. Shuningdek, XIK import va Eksport qilayotgan tovar va xizmatlarning ichki va tashqi bozorlardagi narxlari ham turli imtiyozlarni qo'llovchi idoralar tomonidan nazorat qilinishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Respublika tashqi savdosi, xususan, Eksporti tarkibida izchillik bilan qayta ishlangan sanoat tovarlari ulishini oshirish va jahon bozoriga xom ashyo bo'yicha bog'liqlikni bartaraf qilish zarur. Shuningdek, Eksport va import bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan reja ishlab chiqilib, unda tovar tarkibi va Eksport qilinadigan bozorlar belgilanib, tashqi savdo strategik jihatdan rivojlantirilishi kerak. Xususan mamlakatda bir tomondan, paxta, jun, kanop va charim xom ashyosi ko'p bo'lsa, ikkinchi tomondan, yetarli mehnat salohiyati mavjud, uchinchi tomondan, oziq-ovqat sanoati uchun ham xom ashyo yetkazib berish imkoniyati bo'lib, bular yengil va oziq-ovqat sanoatlarining barcha tarmoqlarini barpo qilish va ularni Eksportga chiqarish uchun asos bo'la oladi. Shuningdek, industrial mamlakatlardagi ilmiy taraqqiyot va uning amalda joriy etilishi bu mamlakatlarda tabiiy xom ashyolardan tayyorlangan iste'mol tovarlarga talabning ortishiga sabab bo'lmoqda. Tabiiy xom ashyolardan tayyor iste'mol tovarlari ishlab chiqarib, rivojlangan mamlakatlarga Eksport qilish imkoniyatidan kengroq foydalanish zarur. Ayni vaqtda bir tomondan jahonda aholining o'sish sur'ati yuqoriligi oziq ovqat sanoat tovarlariga, ikkinchi tomondan jahonda daromadlarning ortishi tovarlarning sifatiga talabni oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu borada jahon iqtisodiyotida salmoqli ulushga ega bo'lib borayotgan Uzoq Sharq mamlakatlari bozoriga alohida e'tibor zarur. Bundan tashqari, Eksport bozorlari muntazam tadqiq qilinishi va undagi o'zgarishlarga muvofiq ishlab chiqarish rivojlantirilishi lozim. Iqtisodiy integratsiyaning o'ziga xos jihatlariga e'tibor qaratib prezident I.Karimov «Integratsiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma xil mexanizmlari va shakllari hamda integratsiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning

boshlang'ich shart-sharoitlari turlicha ekanligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda–dunyo miqyosida va mintaqa ko'lamida integratsiya jarayonlarida qatnashsada, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Biz bir subyekt bilan sherikchilikni mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga qarshimiz. Shu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integratsiyalashuvi serqirra jarayondir[13]» deb alohida ta'kidlaganlar.

O'zbekistonga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmini imkon darajasida deyish qiyin. Shu bois, xorijiy investitsiyalar salmog'ini oshirish va ular ishtirokidagi korxonalar Eksportini sezilarli darajaga chiqarish zarur. Shuningdek, xorijlik investorlarga imtiyozlarda ularning importining Eksportiga nisbati ko'zda tutilib berilishi kerak. Chunki tahlillardan ularning importi Eksportiga qaraganda qariyb ikki barobarga ortiqligini mahlum bo'lmoqda, ya'ni, ularning import xarajati o'zlarining Eksport daromadi hisobiga emas, boshqa manbalar hisobiga olingan valyutalar bilan qo'lanmoqda.

[13] Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent: O'zbekiston, 1999. - 658–659 - b.

## Xulosa

Ushbu bitiruv malakaviy ishimni yozishdan hamda mavzuni imkon qadar yaxshiroq o’rganishdan ko’zlangan maqsad ham yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, O’zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada rivojlantirish bo’yicha amaliy takliflar berishdan iborat edi. Shuni inobatga olgan holda hamda yuqorida o’tkazilgan taxlil va izlanishlar asosida quyidagi *muhim xulosa va takliflarga kelindi:*

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy aloqalarning tarkibi ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli takomillashib milliy iqtisodiyotning tashqi iqtisodiy faoliyat ko’rsatkichlarida aniq aks etib kelmoqda. O’zbekiston eksportining tovar tarkibi ham so’ngi yillarda sezilarli darajada o’zgarib raqobatbardosh tayyor mahsulotlar barqaror o’sishi tendentsiyasi va xom ashyo yetkazib beruvchi tarmoqlar maxsulotlar ulushi yildan yilga kamayib borayotgani yaqqol ko’zga tashlanmoqda.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda “O’zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanish yo’nalishlari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi dolzarb hisoblanadi. Chunki tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish uchun mamlakatimizda ishlab chiqarish salohiyati ichki iqtisodiyotni ta’minlash bilan bir qatorda jahon bozorida ham o’z faoliyatini olib boradigan darajada rivojlangan va mehnat taqsimoti chuqurlashib, ishlab chiqarish tizimi zamonaviy texnologiya asosida tashkil etilgan bo’lishini talab etadi. Bular mamlakatda yetarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilganda iqtisodiy munosabatlarni kerakli darajada rivojlanishiga zamin yaratilishini ko’rsatadi.

O’zbekistonda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishning ustuvor yo’nalishlaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada chuqurlashtirishdan iborat. Jahon xo’jaligi tizimida globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan bugungi kunda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, eksport tarkibini diversifikatsiyalash va qo’shilgan qiymat darajasi yuqori bo’lgan tovarlar ulushini oshirish mamlakat oldida turgan eng asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Eksport geografiyasini kengaytirish va tovar tarkibini deversifikatsiyalash mamlakat tashqi savdosida muhim ahamiyatga ega. Buning uchun esa jahon tajribasidan foydalanish muhim hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan O’zbekiston eksport geografiyasini tovar tarkibini takomillashtirishning samarali ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish, unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash hamda uni amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar tayyorlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega va mazkur malakaviy bitiruv ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyat yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, milliy xo'jaliklarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvining nazariy va amaliy muammolari, eksport salohiyatini oshirish va tarkibiy rivojlantirishning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati va uning tarkibini rivojlanish yo'nalishlarini va jahon savdosining shu davrdagi rivojlanish yo'nalishlarini o'rgangan holda eksport va import tarkibini takomillashtirish va geografiyasini kengaytirish yo'llarini ishlab chiqish va ilimy-uslubiy, amaliy tavsiyalar olindi.

Jahon savdosi va uning rivojlanish yo'nalishlarini ochib berildi; O'zbekiston eksportini rivojlanish yo'nalishlari va tarkibiy takomillashuvining o'ziga xos jihatlarini tahlil qilindi; O'zbekiston eksporti tarkibi, undagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarni aniqlangan, xulosa va tavsiyalar berilgan; eksport geografiyasini tahlil qilish va uni o'zaro manfaatli hamkorlar hisobiga kengaytirish yo'llarini aniqlangan; eksport tarkibini devirsifikatsiya qilish va eksportbob mahsulotlar ishlab chiqarishda korxonalarni rivojlantirish yo'llarini ilmiy-uslubiy o'rganilgan; O'zbekiston hududlarining tashqi savdo aloqalarini rivojlantirish yo'llarini o'ziga xos jihatlarini asoslangan; eksportda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonar roli va ularni samaradarligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jahon tovarlar savdosining eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan avtomobil sanoatidir. Eksportni rag'batlantirish maqsadida nol koeffisentli qo'shimcha qiymat solig'i solingan. O'zbekiston ham avtomobil eksport qilish bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallagan.

O'zbekiston agrar industrial mamlakat bo'lib, o'zining rivojlanish yo'nalishiga ega davlat hisoblanadi. Bunga qo'shimcha ravishda respublikada qulay investitsion muhit yaratilgan.investitsiyalarni asosiy qismi ishlab chiqarish sanoatiga yo'naltirilgandir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish uchun keng ko'lamli ishalr amalga oshirilmoqda. "2011-2015 yillarda O'zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur sanoat sohasida umumiy qiymati qariyb 50 milliard dollarni tashkil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Yaqin besh yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulotda uning ulushini 2010 yildagi 24 foizdan 2015 yilda 28 foizga ko'paytirishni ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Bu borada mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati va boshqa sohalarni jadal rivojlantirish hisobidan ushbu tarmoqlarda ikki barobardan ziyod o'sishga erishiladi.O'zbekiston paxta eksport qilish bo'yicha yuqori o'rinni egallaydi. Buni yanada rivojlantirish uchun yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Yirik ishlab chiqarish qo'shma korxonalari bunyod etilmoqda. Bu yarim tayyor mahsulot-

ni emas balki tayyor mahsulotlar eksport qilish imkinini beradi. Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig‘i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O‘zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2011 yildagi asosiy ustuvor yo‘nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda.

Darhaqiqat, jonajon diyorimiz-serquyosh O’zbekiston tabiiy jihatdan juda katta qulayliklarga ega. Uning iqlimi lazzati tengsiz mevalar va har turli sabzavotlar yetishtirishga katta imkoniyat beradi, bundan tashqari yer osti boyliklari ham mamlakatimizda juda katta ahamiyatga ega. Shuningdek mamlakatimizda, ayniqsa, so’nggi yillarda sanoatlashuvning yanada chuqurlashib borishi yanada ko’proq zavoda va fabrikalar barpo etishni taqazo etib kelmoqda, bu ishda rivojlangan xorijiy davlatlar sarmoyalari ishtiroki katta ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. O’rta Osiyodagi o’zinng munosib o’rniga ega bo’lgan davlatlardan biri va aytish kerak, asosiysi bu-O’zbekistondir.

# FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI


**1. Rasmiy xujjatlar**

**1.1. O'zbekiston Respublikasining qonunlari**

1.1.1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 8.12.1992 y. –Toshkent.: O'zbekiston, 2003. - 40 b.

1.1.2.O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi qonuni. 22.12.1995 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1995 y. 12-son, 49-62 b.

1.1.3.O'zbekiston Respublikasining Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonuni. 25.04.1996y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1996 y. 5-6-son, 39-45 b.

1.1.4.O'zbekiston Respublikasining Xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi qonuni. 29.08.1996y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi1996 y.9-son,29-33 b.

1.1.5.O'zbekiston Respublikasining Boj tarifi to'g'risidagi qonuni. 29.08.1997y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997 y. 9-son, 34-49 b.

1.1.6.O'zbekiston Respublikasining Chet el investitsiyalari to'g'risidagi qonuni. 30.04.1998 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1998 y. 5-6-son, 117-128 b.

1.1.7.O'zbekiston Respublikasining Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risidagi qonuni. 30.04.1998 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1998 y. 5-6-son, 129-135 b.

1.1.8.O'zbekiston Respublikasining Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risidagi qonuni. 01.05.1998 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1998 y. 5-6-son, 165-183 b.

1.1.9.O'zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi qonuni. 14.04.1999 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1999 y. 5-son, 10-24 b.

1.1.10.O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonuni. 26.05.2000 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2000 y. 5-6-son, 83-92 b.

1.1.11.O'zbekiston Respublikasining Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risidagi qonuni. 07.12.2001 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2002 y. 1-son, 76-90 b.

1.1.12.O'zbekiston Respublikasining Muhofaza choralari, antidemping va kompensatsiya bojlari to'g'risidagi qonuni. 11.12.2003 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004 y. 1-2-son, 8-24 b.

1.1.13.O'zbekiston Respublikasining Valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonuni 11.12.2003 y. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2004 y. 1-2-son, 26-36 b.

1.1.14.O'zbekiston Respublikasining Eksport nazorati to'g'risidagi qonuni. 26.08.2004 y. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2004 y. 37-son, 4-7 b.

1.1.15 O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 30.11.2007 y. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2007 y. №52, 4-253b.

**1.2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari**

1.2.1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni 11.03.2005 y. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 10-11 son, 6- b.

1.2.2.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «To’g’ridan-to’g’ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi farmoni 11.04.2005 y. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami 15-16 son, 4-7 b.

1.2.3.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorij investitsiyalarni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to’g’risida»gi farmoni 21.07.2005 y. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami 28-29 son, 9-10 b.

1.2.4O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «Eksport–import operatsiyalarini tartibga solish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi qarori 19.09.2005 y. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami 40-son, 6-7- b.

**1.3.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

1.3.1.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O’zbekiston Respublikasi hududiga jismoniy shaxslar tomonidan tovarlar olib kelinishini yanada tartibga solish to’g’risida»gi qarori 19.06.2003 y. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami 12-son. 17-18 b.

1.3.2.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb etish mexanizmini takomillashtirish to’g’risida»gi qarori 9.02.2004 y. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami 6-son. 29-30 b.

1.3.3.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarga berilayotgan imtiyozlarning rag’batlantiruvchi rolini oshirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida»gi qarori 01.05.2006 y. O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami 18-son. 21-22 b.

**2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari**

2.1. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O’zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralari.Toshkent: O’zbekiston, 2009

2.2. Karimov I.A. asosiy vazifamiz- vatanimiz tarqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent: O’zbekiston, 2010

2.3. Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - Toshkent: O’zbekiston, 1996. -364 b.

2.4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo’lidan. - Toshkent: O’zbekiston, 1996. -349 b.

2.5. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent: O’zbekiston, 1999. -686 b.

2.6. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10 -T .: «O’zbekiston», 2002. -432 b.

2.7. Karimov I.A. Biz tanlagan yo’l–demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo’li T.11.–T.:«O’zbekiston»,2003. -320 b.

2.8. Karimov I.A. O’zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo’lmaydi. T.13. –T .: «O’zbekiston», 2005. – 448 b.

2.9. Karimov I. A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, mahnaviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15 –T.: O’zbekiston, 2007. - 320 b.

**3. Ilmiy manbalar, kitob va risolalar**

3.1. Avdokushin E.F. Международные экономические отношения. Moskva: YuNITA-DANA, 2004. -196 b.

3.2. Avdokushin E.F. Boychenko A.V. i dr. Мировая экономика. Экономика зарубежных стран. Под редакцией Калесова В.П., Осьмовой М.Н., M.:Flinta, 2001. -480 b.

3.3. Alimov R.O., Rasulov A.F., Qodirov A.M., va boshq. O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari: nazariya va amaliyot. //G'ulomov S.S. tahriri ostida. – Toshkent. Konsauditinform-Nashr, 2006. 360-380 b.

3.4. Bekmurodov A.SH., G'ofurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. Toshkent: - 2007 y.

3.5. Vaxabov A.V., Razikova G.X., Xajibakiev SH.X. Mirovaya ekonomika. -T.: NUUz, 2006. -304 b.

3.6. Vaxabov A.V., Jumaev N.X., Burxonov U.A. Xalqaro moliya munosabatlari. –T.: "Sharq", 2003. -400 b.

3.7. Vaxabov A.V. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. –T.: "Sharq", 2003. -320 b.

3.8. Vaxabov A.V. Bozor munosabatlariga o'tish bosqichidagi ko'p ukladli iqtisodiyot va uning takroran hosil bo'lishi. –T.: Moliya, 2002. -325 b.

3.9. Jukov Ye.F., Kapaeva T.I, Litvinenko L.T. Международные экономические отношения. M.: YuNITI-DANA, 2001. -485 b.

3.10. Krasavinoy L.N. pod. red. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения.. –Moskva: Finansi i statistika, 2001. -608 b.

3.11. Kireev A.P. Международная экономика. V 2-x ch. –CH. II. –Moskva.: Международная отношения, 1999. – 488 b.

3.12. Krugman P. Международная экономика. 5-e izd. –SPb.: Piter. 2004. -831 b.

3.13. Kolesov V. P. Международная экономика. –Moskva.: INFRA-M, 2004. -474 b.

3.14. Lomakin V. K. Мировая экономика. Moskva.: YuNITI, 2000.-727 b.

3.17 Fomishin S. V. Международные экономические отношения. Rostov n/D: Feniks, 2006. -608 b.

3.18 Moiseev S.R. Международные валютно-кредитные отношения. –Moskva: Delo i Servis, 2007. -816 b.

3.19 Международная экономическая интеграция / Liventseva N.N., Xarlamova V.N. i dr.; Liventseva N.N. pod. red. -Moskva: "Ekonomist'", 2006. -430 b.

3.20 Мировая экономика. Abduraxmanov K. X., Dodobaev Yu.T., Axmedov O.M., Abduraxmanov O.K. Tashkent: "O'qituvchi", 2006.-416 s.

3.21 Matitsin A.K. Вертикальная интеграция: теория и практика. Novqe Vek God izdaniya, 2002. - 368 b.

3.22 Maxmudov E.R. Мировая экономика: современные экономические системы. – Toshkent. : UMED, 2006. -496 b.

3.23 Shemyatenkov V.G. Европейская интеграция. –Moskva.: Международная отношения, 2005. -354 b.

3.24 Rasulev A., Bedrintsev A., Akilov A. O'zbekiston: tashqi iqtisodiy faoliyat va jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv. –T.: O'zbekiston,1996 -66 b.

3.25 Sirajiddinov N.S. Проблемы повышения эффективности внешней торговли Узбекистана: теоретико-методологические аспекты. - Toshkent.: UMED, 2004. -224 b.

3.26 Saidov A.X. Xalqaro huquq. –Toshkent.: Adolat, 2001. -368 b.

3.27 O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari / To'xliev N., Haqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. -T.: O'zME, 2006.-396 b.

3.28 O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: Mehnat, 1995. -463 b.

3.29 O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.:Sharq, 2006,-448 b.

3.30 Hamedov M.A., Alimov A.M. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. –T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004.-328 b.
3.31 Shodiev R.X., Maxmudova E.R. Jahon iqtisodiyoti. T.: G'.G'ulom, 2005. -312 b.
3.32 Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. –T.: Fan va texnologiya, 2005. -784 b. (lotin imlosida).
3.33 Laffer A. V. and Miles M., International Economics in An Integrated World. Scatt, For-esman and Com'any, 1982. -348 r.
3.34 Salvatore D. International Economics. 'rentice-Hall, 2004. -626

## 4 Dissertatsiya va avtoreferatlar

4.1. Abdullaev R.V. O'zbekiston iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida agrar sektorning eksport salohiyatini yuksaltirish (paxta tolasi eksporti misolida). Iqt.… fan. dok. dis. avtoref. – Toshkent: O'zbekiston bozor islohotlari ilmiy-tadqiqotlari instituti, 2001. -50 b.
4.2. Muratova G.K. Узбекистан в региональных экономических интеграционных процессах: Iqt… fan. nom. dis. –Toshkent: O'zMU, 2004. -140 b.

## 5. Jurnallardagi ilmiy maqolalar

5.1.Aripov S. Respublika tashqi iqtisodiy faoliyatida bojxona xizmatining o'rni // Bozor, pul va kredit. –Toshkent, 2006. №8. B. 58-60.
5.2. Rasulov A. Внешнеэкономическая деятельности Узбекистана: состояние, проблемы и перспективы // Рынок, деньги и кредит. –Tashkent, 1997. S. 8-12.
5.3.Karimova Z. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish– O'zbekistonning BST ga integratsiyalashuvi negizi // Bozor, pul va kredit. –Toshkent, 2005. №2. B. 61-63.
5.4.Qosimov R., Rasulmuhamedov A. Eksportni yuksaltirish imkoniyatlari // Jamiyat va boshqaruv jurnali. –Toshkent, 2000. №1. B. 58-60.
5.5.Yusupov A. O'zbekistonning erkin savdo tizimiga integratsiyalashuvi // Bozor, pul va kredit. –Toshkent, 2004. №6. -B. 66-69.
5.6.Sodikov Z.R. Jahon bozoriga yo'l// Soliq to'lovchining jurnali. -Toshkent, 2007. -№3. -B. 37-38.
5.7. Sodikov Z.R. Tashqi savdoni faollashtirish // Jamiyat va boshqaruv jurnali. -Toshkent, 2007. -№3. -B. 106-107.

## 6. Ilmiy ishlar to'plamlari va konferentsiya materiallari

6.1.Vaxabov A.V. Iqtisodiyotni erkinlashtirish bosqichida O'zbekiston tashqi savdosini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari // O'tish iqtisodiyoti sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti va tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish xususiyatlari / O'zMU Iqtisodiyot fakulteti Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi tezislar to'plami. –T.,2004.–B.4-9.
6.2.Iskanderov I.I. O'zbekistonda integratsiya jarayonini kengaytirishning iqtisodiy asoslari //Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning qonuniyatlari va tendentsiyalari: tajriba va muammolar / O'zR FA Iqtisodiyot Instituti, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, Ijtimoiy iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Respublika ilmiy - amaliy konferentsiya ma'ruzalar tezislari. –T., 2006. –B. 24-34.
6.3.Qodirov A., Bekmullaev A. Интеграционная стратегрия промышленних предприятий в условиях рыночной экономики // Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning qonuniyatlari va tendentsiyalari: tajriba va muammolar / O'zR FA Iqtisodiyot Instituti, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik

fikrini o'rganish markazi, Ijtimoiy iqtisodiy tadqiqotlar markazi. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya ma'ruzalar tezislari. –T., 2006. –B. 44-45.

## 7. Statistik to'plamlar va tahliliy materiallar

7.1. Statisticheskoe obozrenie Uzbekistana
O'zbekiston Respublikasining 2000 yilda Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. Toshkent, O'zmakroiqtisodstat vazirligi Statistika davlat departamenti. 2001.
7.2.UZBEKISTAN V SIFRAX 2005. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining statistik to'plami, 2006.
7.3.UZBEKISTAN V SIFRAX 2006. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining statistik to'plami, 2007.
7.4.O'zbekiston iqtisodiyoti tahliliy sharhi. 2003. №2. Samarali Iqtisodiy Siyosat Markazi, 2003.
7.5.O'zbekiston iqtisodiyoti tahliliy sharhi. 2004. №4. Samarali Iqtisodiy Siyosat Markazi, 2004.
7.6.O'zbekiston iqtisodiyoti tahliliy sharhi. 2005. №8. Samarali Iqtisodiy Siyosat Markazi, 2005.
7.7.O'zbekiston iqtisodiyoti tahliliy sharhi. 2005. №10. Samarali Iqtisodiy Siyosat Markazi, 2005.
7.8.World Development Indicators. The World Bank. Washington. USA. 2009.
7.9.World Trade Report. World Trade Organization Switzerland 2009.
7.10. International Trade Statistics. World Trade Organization Switzerland 2009.

## 8. Elektron saytlar

8.1.W.W.W. Stat.uz
8.2. W.W.W.WTO. org.
8.3.W.W.W.World Bank. org.
8.4. W.W.W.MFER.uz
8.5.W.W.W.MF.uz
8.6.W.W.W. Gazeta.uz
8.7.W.W.W. 'ress-service.uz
8.8.W.W.W. LEX.uz